

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

BABAXONOV JA’FAR MUXIDDINOVICH

**SOLIQLARNING KORXONALAR MOLIYAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATIGA
TA’SIRINI BAHOLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Babaxonov Ja'far Muxiddinovich

Soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini baholash tartibini
takomillashtirish3

Бабахонов Жаъфар Мухиддинович

Совершенствование порядка оценки влияния налогов на финансово-хозяйственную
деятельность предприятий27

Babakhonov Jafar Mukhiddinovich

Improving the procedure for assessing the impact of taxes on the financial and economic
activities of enterprises53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works59

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

BABAXONOV JA’FAR MUXIDDINOVICH

**SOLIQLARNING KORXONALAR MOLIYAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATIGA
TA’SIRINI BAHOLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.1.PhD/Iqt2755 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Kuziyeva Nargiza Ramzanovna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Burxonov Aktam Usmonovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ashurova Nasiba Botirovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti**
Toshkent shahridagi filiali

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "19" 04 soat 14 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1428 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "3" 04 kuni tarqatildi.

(2024-yil "3" 04 dagi 24 raqamli reyestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jahon mamlakatlarida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda davlat budjeti moliyaviy barqarorligini ta'minlashning ahamiyati ortib bormoqda. Ko'pchilik xorijiy mamlakatlarda yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar davlat budjetining asosiy daromad manbalari bo'lib hisoblanadi. Xususan, "budjet daromadlari tarkibida korxonalar tomonidan to'lanadigan foyda solig'ining ulushi Yaponiyada 20,3 foiz, Italiyada 11,6 foiz, Buyuk Britaniyada 7,7 foiz, Kanadada 7,1 foiz, AQShda 7,0 foizni tashkil etmoqda. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning mahalliy budjet daromadlari tarkibidagi ulushi AQShda 9,2 foiz, Buyuk Britaniyada 8,4 foiz, Kanadada 8,3 foiz, Yaponiyada 8,0 foiz, Fransiyada 4,2 foizni tashkil etgan"¹. Jahon mamlakatlarida korxonalaridan olinadigan soliqlarning barqarorligini oshirish va korxonalar moliyaviy faoliyatiga soliqlarning ta'sirini belgilab beruvchi baholash tartibini takomillashtirish o'z ahamiyatini namoyon etmoqda.

Jahonda iqtisodiyotdagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga bo'lgan ehtiyojning kuchayib borishi sharoitida soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini baholash tartibini takomillashtirishga yo'naltirilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Soliq yukining korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta'siri, soliq to'lovlarining korxonalar rivojlanishi, tadqiqot va ishlanmalari, texnologik innovatsiyalari, korxonaning rentabellik darajasiga ta'siri, korxonalar investitsion va innovatsion faoliyatiga soliq imtiyozlari va preferensiyalarning ahamiyati, korxonalarining o'z resurslarini samarali taqsimlash, investitsiya qilish, kengaytirish va risklarini kamaytirishda soliqlarni to'g'ri hisobga olish va samarali rejalashtirish, jahon va mintaqaviy bozorlarda korxonalarining raqobatbardoshligiga soliqlarning bevosita ta'sir qilishi, soliq stavkalarining korxonalarini moliyalashtirish va kapital tarkibi to'g'risidagi qarorlarga ta'siri, yangi soliqlarni joriy etish yoki soliq stavkalarini pasaytirish, korxonalarining biznes muhiti va moliyaviy faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi kabi masalalar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda biznes yuritishni soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay moliyalashtirish tizimi va infratuzilma yaratish hamda mulk huquqini ta'minlash bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "biznes subyektlari mikro, kichik, o'rta va yirik toifalarga bo'lindi va ularning har biri bilan alohida yondashuvlar asosida ishlash tizimi yo'lga qo'yildi. Tuman va shaharlar ham 5 ta toifaga ajratildi, 60 ta tumanga alohida soliq, kredit va moliyaviy yordam rejimlari joriy qilindi. Natijada bu tumanlardagi tadbirkorlar o'tgan olti oyda qariyb 1 trillion so'mlik imtiyozlardan foydalandi"². Bu borada belgilangan vazifalarning bajarilishida soliq to'lovchilarning qo'shilgan qiymat

¹ World Investment Report-2022: International tax reform and sustainable investments. UNCTAD/WIR/2022. https://unctad.org/system/files/official-document/wir2022_en.pdf.

² Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga k'utariش – ustuvor vazifamizdir. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимиз тadbirkorлари билан очик мулоқот шаклида ўтказилган учрашувдаги нутқи. (18.08.2023 у.) // <https://president.uz/uz>.

solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tish tartibini qulaylashtirish, tadbirkorlik subyektlari (korxonalar)ni mezonlar asosida toifalarga ajratish, qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'i vositasida yuridik shaxslarning ko'chmas mulkdan samarali foydalanishini rag'batlantirish, tadbirkorlar tomonidan nogiron shaxslarning bandligini ta'minlashga foyda solig'idan imtiyozlar yordamida ta'sir ko'rsatish kabi masalalar yechimiga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining amalga oshirilishi dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-sonli "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-iyundagi PF-162-sonli "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-sonli "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 15-apreldagi PQ-208-sonli "Budjetlararo munosabatlarni va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish to'g'risida", 2022-yil 24-martdagi PQ-178-sonli "Jahon banki ishtirokidagi "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-sonli "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi VMQ-489-sonli "Qo'shilgan qiymat solig'i hamda chet el yuridik shaxslari bilan bog'liq soliq ma'murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini baholash tartibini takomillashtirishning ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy muammolari D.Tilman, K.Cassman, P.Matson, P.W.Gerbens-Leenes, S.Nonhebel, J.J.Buckley, Y.Chui, S.Chan, D.Kuchta, R. P.Mohanty, R.Agarwal, korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga soliqlarning ta'sirini o'rganish borasida M.Feldstein, J.Buchanan, N.Nicholas Taleb, J.A.Mirrlees kabi xorijlik iqtisodchi-olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida tadqiq etilgan³.

³ Tilman, D., Cassman, K.G., Matson, P.A., Naylor, R. and Polasky, S. (2002) Agricultural Sustainability and Intensive Production Practices. *Nature*, 418, p. 671-677; Gerbens-Leenes, P.W. and Nonhebel, S. (2002) Consumption Patterns and Their Effects on Land Required for Food. *Ecological Economics*, 42, 185-199; Buckley, J.J. (1987) The fuzzy mathematics of finance, fuzzy sets and systems, 21, pp. 257-273; Chui Y.C. and Chan S.P. (1994) Fuzzy cash flow analysis using present worth criterion, *Engineering economist*, 39, pp. 113-138; Kuchta, D. (2000) Fuzzy capital budgeting. *fuzzy sets and systems*, 111, pp. 367-385; Mohanty, R.P., Agarwal, R., Choudhury, A.K. and Tiwari, M.K. (1994) A fuzzy and-based approach to r&d project selection: a case study, *int. j. Production research*, 43, pp. 5199-6

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan L.I.Abalkin, A.D.Ayaskov, I.T.Balabanov, A.S.Bulatov, N.D.Zaripova, G.E.Igolnikov, U.S.Patrusheva tomonidan korxonalarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga soliqlarning ta‘sirini baholash tartibini takomillashtirish masalalari bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan, xususan, ushbu tadqiqotlarda korxonalar moliyaviy faoliyatini soliqlar orqali rag‘batlantirish, soliq yukining korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga ta‘sirini o‘rganish, soliqlarning korxonalar faoliyatiga ta‘sirini baholash usullarini qo‘llash mexanizmlari o‘rganilgan va tadqiq etilgan⁴.

O‘zbekistonda korxonalarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga soliqlarning ta‘sirini baholash mexanizmining nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari iqtisodchi olimlar T.Malikov, N.Haydarov, A.Vaxobov, A.Jo‘rayev, N.Kuziyeva, Sh.Toshmatov, S.Elmirzayev, Q.Usmonov, H.Zaripov, Sh.Dusiyarov va boshqalar tomonidan tadqiq etilganligini ta‘kidlash mumkin⁵.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan korxonalarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga soliqlarning ta‘sirini baholash tartibini takomillashtirish masalalari kompleks va tizimli tarzda to‘liq o‘rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarining dolzarblilik darajasini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ITM-3 “Iqtisodiyotni

5216; Martin Feldstein. “Tax Policy, Corporate Saving and Investment Behavior in Britain”, Review of Economic Studies, Vol. 38, October 1971; James Buchanan. Tax Reform as Political Choice. Journal of Economic Perspectives, 1987, vol. 1, issue 1, 29-35; Taleb, Nassim Nicholas. Antifragile: Things That Gain from Disorder (англ.). – New York: Random House, 2012. ISBN 978-1-4000-6782-4.; Mirrlees J.A. Project appraisal and planning for developing countries. Basic Books, New York, 1974. XVI. pp. 388.

⁴ Абалкин Л.И. Логика экономического роста. – М.: Институт экономики РАН, 2002. С. 228; Аяцков А.Д. Развитие системы налогообложения предприятий промышленности в переходной экономике: дис. кандидат экономических наук: 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит. – Саратов, 2000. – 160 с.; Балабанов И.Т. Основы финансового менеджмента. Как управлять капиталом? Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2000. С. 268; Булатов А.С. Экономика. – М.: Бек, 1996. С. 618; Зарипова Н.Д. Налоги в регулировании развития организаций: дис. кандидат экономических наук: 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит. – Казань, 2005. – 183 с.; Игольников Г.Е., Патрушева Е.С. Что понимать конкурентоспособностью, инвестиционной конкурентоспособностью, инвестиционной привлекательности и экономичностью производства Российские экономический журнал. – М., 1995. № 11.

⁵ Маликов Т. Солиқлар ва солиққа тортишнинг долзарб масалалари. – Т.: Академия, 2002. – 204 б.; Ҳайдаров Н. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солиқ муносабатларини такомиллаштириш масалалари. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2003; Вахобов А., Жураев А. Солиқлар ва солиққа тортиш. Дарслик. – Т.: Шарк, 2009; Кузиева Н. Хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар фаолиятини рағбатлантиришнинг молия-кредит механизмини такомиллаштириш йўналишлари. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2008; Ташматов Ш. Корхоналарни ривожлантиришда солиқлар роли. Монография. – Т.: Фан ва технология, 2008. – 204 б.; Элмирзаев С. Корпоратив солиқ менежментини самарали ташкил этиш ва ривожлантириш масалалари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий-электрон журнали. 3-сон, май-июнь, 2015 йил; Усмонов Қ. Солиқ-божхона сиёсатини юритиш методологияси таҳлили. Iqtisodiyot va ta‘lim, 6-son, (2021); Зарипов Ҳ. Солиқларнинг корхоналар молиявий-хўжалик фаолиятига таъсирини баҳолаш йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2020; Дусияров Ш. Кичик тадбиркорлик субъектлари молиявий фаолиятига солиқларнинг таъсири таҳлили. Iqtisodiyot va ta‘lim, 6-son, 105-109-б., (2021).

modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi soliqlarning korxonalarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga ta’sirini baholash tartibini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

korxonalar soliq mexanizmini shakllantirishning nazariy asoslari va o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash;

soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga ta’sirini baholash usullarini tadqiq etish;

korxonalarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini soliqlar orqali rag‘batlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash;

soliq yukining korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga ta’sirini tahlil etish;

soliq ma‘murchiligining zamonaviy yo‘nalishlarini belgilash va ularni korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga ta’sirini tahlil qilish;

korxonalar moliyaviy faoliyatini soliqlar orqali rag‘batlantirishda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ulardan mamlakatimizda foydalanish istiqbollari belgilash;

korxonalar faoliyatini soliqlar orqali rag‘batlantirish samaradorligini baholash tartibini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasida soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga ta’sirini baholash amaliyoti olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib, korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga soliqlarning ta’sirini baholashda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda iqtisodiy, qiyosiy, tahlil qilish va tanlama kuzatish, statistik hamda ko‘p omilli ekonometrik tahlil usullari, monografik kuzatish, mantiqiy va abstrakt fikrlash kabi usullardan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

soliq to‘lovchilarning soliq davrida tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad miqdori yuz million so‘mdan oshganda, soliqning oshib ketgan summasidan aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tishi, realizatsiya qilishdan olingan daromad miqdori bir milliard so‘mdan oshganda, qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tishi tartibini belgilash orqali soliqlarning rag‘batlantiruvchi ta’sirini ta’minlash asoslangan;

soliqqa tortish maqsadida tadbirkorlik subyektlarini ta’xischilari (ishtirokchilari)ning tavsifi hamda yillik daromad miqdoriga asoslangan mezonlar bo‘yicha kichik, o‘rta va yirik tadbirkorlik subyektlari toifalariga ajratish taklifi ishlab chiqilgan;

yuridik shaxslarning o‘z mulkiy egaligidagi ko‘chmas mulk obyektlari va ishlab chiqarish maydonlaridan samarasiz foydalanayotganligi bo‘yicha xulosa kiritilgan holatda ularning qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tishi tartibini belgilash orqali soliqlarning samarali faoliyatga undovchi ta’sirini oshirish asoslangan;

yuridik shaxslar tomonidan korxonadagi ishlovchilar umumiy o'rtacha yillik sonining 3 foizidan ko'proq qismini nogironligi bo'lgan shaxslar tarkibidan yollangan holatda foyda solig'i stavkasi belgilangan normadan ortiqcha ishga joylashtirilgan nogironligi bo'lgan shaxslarning har bir foiziga soliq stavkasining bir foizi hisobidan kamaytirish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

korxonalar moliyaviy faoliyatini soliqlar orqali rag'batlantirishda xorijiy tajribalarni joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar berilgan;

aylanmadan olinadigan soliq to'lashga o'tgan to'lovchilar – soliq to'lashga o'tgan yildan keyingi bir soliq davri mobaynida, pasaytirilgan soliq stavkasi qo'llaniladigan soliq davrida soliq to'lovchining jami daromadi o'n milliard so'mdan oshmasa hamda jami daromadi joriy soliq davri mobaynida ilk marta o'n milliard so'mdan oshgan soliq to'lovchilar – joriy soliq davri va keyingi soliq davri mobaynida, pasaytirilgan soliq stavkasi qo'llaniladigan soliq davrlarida jami daromadi yuz milliard so'mdan oshmagan taqdirda foyda solig'i stavkasi 50 foizga pasaytirilishi bo'yicha taklifi asoslangan;

qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanmani aniqlash tartibi belgilab berilgan;

qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan realizatsiya qilish bo'yicha aylanma mavjud bo'lganda, soliq summasini hisobga olish uchun qabul qilish tartibi ishlab chiqilgan;

soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sirining ekonometrik modeli tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ekonometrik va matematik usullarning asoslanganligi, statistik ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlariga hamda boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi, xulosa va takliflarning tegishli mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada asoslab berilgan va qo'llanilgan tadqiqot modellaridan iqtisodiyot tarmoqlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yaxlit holda o'rganish, korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga soliqlarning ta'sirini tahlil qilish natijalariga ko'ra maqbul rivojlantirish strategiyasini yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishida olingan amaliy tavsifdagi xulosa va takliflardan korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini soliqlar orqali rag'batlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar va me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish, respublikada yangi xo'jalik yuritish tizimlarini tashkil etishning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish, oliy o'quv yurtlarida "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish", "Soliq tizimining islohotlari va taraqqiyoti", "Moliya" fanlarining o'quv dasturlarini takomillashtirish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Soliqlarning korxonalarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga ta‘sirini baholash tartibini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

solliq to‘lovchilarning solliq davrida tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad miqdori yuz million so‘mdan oshganda, solliqning oshib ketgan summasidan aylanmadan olinadigan solliqni to‘lashga o‘tishi, realizatsiya qilishdan olingan daromad miqdori bir milliard so‘mdan oshganda, qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tishi tartibini belgilash orqali solliqlarning rag‘batlantiruvchi ta‘sirini ta‘minlash taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining Solliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-741-sonli Qonunida aks etgan va O‘zbekiston Respublikasi Solliq kodeksining 66-bob 462-moddasida inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Solliq qo‘mitasining 2023-yil 17-avgustdagi 15-84597-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida solliq to‘lovchilarning tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad miqdoridan kelib chiqqan holda solliqlarning rag‘batlantiruvchi ta‘sirini kuchaytirish imkoni yaratilgan;

solliqqa tortish maqsadida tadbirkorlik subyektlarini ta‘sischilari (ishtirokchilari)ning tavsifi hamda yillik daromad miqdoriga asoslangan mezonlar bo‘yicha kichik, o‘rta va yirik tadbirkorlik subyektlari toifalariga ajratish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi “Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda solliq siyosati va solliq ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-sonli Farmonida aks etgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Solliq qo‘mitasining 2023-yil 17-avgustdagi 15-84597-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida o‘tgan bir yilda kichik tadbirkorlar soni 40 mingtaga ko‘payib, 490 ming birlikni, o‘rta tadbirkorlar soni 2 mingtaga oshib, 10 ming birlikni, yirik korxonalar soni esa bir yilda 400 taga ko‘payib, 1,5 ming birlikni tashkil etgan;

yuridik shaxslarning o‘z mulkiy egaligidagi ko‘chmas mulk obyektlari va ishlab chiqarish maydonlaridan samarasiz foydalanayotganligi bo‘yicha xulosa kiritilgan holatda ularning qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tishi tartibini belgilash orqali solliqlarning samarali faoliyatga undovchi ta‘sirini oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining Solliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-7412-sonli Qonunida aks etgan va O‘zbekiston Respublikasi Solliq kodeksining 66-bob 462-moddasida inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Solliq qo‘mitasining 2023-yil 17-avgustdagi 15-84597-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida yuridik shaxslarning qo‘shilgan qiymat solig‘ini va foyda solig‘ini to‘lashga o‘tishi tartibini kiritish orqali o‘z mulkiy egaligidagi ko‘chmas mulk obyektlari va ishlab chiqarish maydonlaridan samarali foydalanishga undash imkoni yaratilgan;

yuridik shaxslar tomonidan korxonadagi ishlovchilar umumiy o‘rtacha yillik sonining 3 foizidan ko‘proq qismini nogironligi bo‘lgan shaxslar tarkibidan yollangan

holatda foyda solig'i stavkasi belgilangan normadan ortiqcha ishga joylashtirilgan nogironligi bo'lgan shaxslarning har bir foiziga soliq stavkasining bir foizi hisobidan kamaytirish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda qabul qilingan "Soliq va budjet siyosatining 2023-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-812-sonli Qonunida aks etgan va O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 47-bob 337-moddasida inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023-yil 17-avgustdagi 15-84597-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida 318 ta korxonaning 6367,7 mln. so'm qo'shimcha mablag'lari o'z ixtiyorida qolishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 9 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika hamda 2 tasi nufuzli xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 130 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining "**Korxonalar faoliyatini soliqqa tortishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida korxonalar soliq mexanizmini shakllantirishning nazariy jihatlari, soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini baholash usullari, korxonalar moliyaviy faoliyatini soliqlar orqali rag'batlantirishning xalqaro tajribasi va uni O'zbekistonda tatbiq etish yo'llari tadqiq etilgan.

Bugungi kunda soliq islohotlarining muhim yo'nalishlaridan biri soliq mexanizmini ishlab chiqishda soliqlarni undirishni optimallashtirish va soliq tizimining yanada samarali ishlashini ta'minlash hisoblanadi. Soliq islohotlarida soliq mexanizmining rivojlanishi mamlakatda soliqqa tortish tizimini doimiy takomillashtirish jarayonini talab etadi.

Tadqiqot doirasida ayrim iqtisodchi olimlarning "soliq mexanizmi" tushunchasiga keltirilgan ta'riflari tahlil qilindi, xususan, amerikalik iqtisodchi

Martin Feldshteyn fikricha, “Samarali soliq mexanizmi iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish va ijtimoiy tenglikni ta‘minlashning asosiy omilidir”⁶. Amerikalik iqtisodchi va iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindori Jeymc Buchanan ta‘kidlashicha, “Eng yaxshi soliq mexanizmi shaxs erkinliklarining buzilishini minimallashtiradigan va jamiyat resurslaridan samarali foydalanishni ta‘minlaydigan mexanizmdir”⁷.

Chexiyalik siyosatchi va iqtisodchi Milosh Zeman: “Soliq tizimi sodda, tushunarli va adolatli bo‘lishi kerak. Bu tadbirkorlik va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishga yordam beradi”⁸, – deb hisoblaydi. Hind iqtisodchisi, professor Abhijeet V. Banerji fikriga ko‘ra: “Optimal soliq mexanizmi ijtimoiy farovonlikni maksimal darajada oshirishga intilishi va aholi daromadlari va ehtiyojlaridagi farqlarni hisobga olishi kerak”⁹.

Amerikalik iqtisodchi Naccim Nikolay Taleb: “Murakkab soliq tartiblari, ko‘pincha, oldindan aytib bo‘lmaydigan oqibatlariga olib keladi va iqtisodiyotda zaifliklarni keltirib chiqaradi. Oddiy soliq tizimlari yanada mustahkamroq va xatolarga kamroq moyil bo‘ladi”¹⁰, – deb ta‘kidlaydi. Amerikalik iqtisodchi Jeymc Mirrli esa: “Optimal soliq mexanizmi davlatning fiskal maqsadlariga erishish va iqtisodiyotdagi buzilishlarni minimallashtirish o‘rtasidagi muvozanatga intilishi kerak”¹¹, – deb fikr yuritadi.

Bugungi kunga kelib, ushbu olimlarning ilmiy izlanishlari va tadqiqotlari yanada samarali soliq tizimini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu sohaga oid ilmiy ishlar va nashrlarda soliq tizimining turli jihatlari, jumladan, soliqqa tortish usullari, soliqlarning iqtisodiyot va jamiyatga ta‘siri, soliq imtiyozlari va preferensiyalari, soliq nazorati mexanizmlari kabi masalalar o‘rganilgan.

Iqtisodchi olimlar tomonidan “soliq mexanizmi” tushunchasiga keltirilgan ta‘riflardan kelib chiqib, quyidagi kengaytirilgan ta‘rifni keltirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: “**Soliq mexanizmi** – soliqlarni undirish va iqtisodiy yoki ijtimoiy subyektlarning soliq majburiyatlarini taqsimlash tartibini belgilovchi qoidalar, tartiblar va vositalar tizimi. Bu murakkab mexanizm bo‘lib, soliq to‘lovchilardan soliqlar qanday undirilishi, taqsimlanishi va soliq mablag‘laridan qanday foydalanilishini belgilaydi”¹².

Soliq mexanizmining maqsadi davlat daromadlarining barqaror va prognoz qilinadigan manbayini ta‘minlash, davlat dasturlari va infratuzilma obyektlarini moliyalashtirish, soliq yukini fuqarolar va korxonalar o‘rtasida ularning daromadlari va holatiga qarab taqsimlash orqali ijtimoiy adolatni ta‘minlashdan iborat. Soliq mexanizmi tarkibiy qismlarini 1-rasm orqali ko‘rishimiz mumkin.

⁶ Martin Feldstein. “Tax Policy, Corporate Saving and Investment Behavior in Britain”, Review of Economic Studies, Vol. 38, October 1971.

⁷ James Buchanan. Tax Reform as Political Choice. Journal of Economic Perspectives, 1987, vol. 1, issue 1, 29-35.


⁸ Задорожнюк Элла. «Фактор Земана» в четвертьвековой политической истории Чехии. // “Свободная мысль”. №2, 2023.

⁹ Банерджи, Абхиджит Против; Дюфло, Эстер (2019). Хорошая экономика в трудные времена. Общественные интересы. ISBN 9781541762879.

¹⁰ Taleb, Nassim Nicholas. Antifragile: Things That Gain from Disorder (англ.). – New York: Random House, 2012. ISBN 978-1-4000-6782-4.

¹¹ Mirrlees J.A. Project appraisal and planning for developing countries. – New York: Basic Books, 1974. XVI. Pp. 388.

¹² Tadqiqotchi tomonidan mualliflik yondashuvi asosida keltirilgan.



1-rasm. Solliq mexanizmining tarkibiy qismlari¹³

Korxonalarining solliq mexanizmini shakllantirish korxonalarining solliq strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoni bo‘lib, u solliq risklarini minimallashtirish va solliq imtiyozlarini maksimal darajada oshirish maqsadida solliqlar va solliq majburiyatlarini boshqarishning optimal usullarini aniqlashni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda korxonalar uchun optimal solliq imtiyozlarini belgilash uchun ularning samaradorligini tizimli ravishda baholash, ma‘lumotlarini tahlil qilish va olingan natijalarga asoslangan yondashuvlarni takomillashtirib borish muhim hisoblanadi. Bu, o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlash, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va davlatning ustuvor maqsadlariga erishish uchun solliq resurslaridan maksimal darajada samarali foydalanish imkonini beradi.

Iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga, korxonalar moliyaviy holatiga solliqlarning ta‘sirini simulyatsiya qilish imkonini beruvchi bir nechta matematik modellar mavjud. So‘nggi o‘n yillikda ushbu masalani tahlil qilishda bir nechta usul va modellardan keng foydalanilgan bo‘lib, ulardan ikkitasini biz tadqiqot ishimizda ko‘rib chiqdik, bular: vektor avtoregressiyasi (VAR) usuli va dinamik stoxastik umumiy muvozanat (DSGE) modellaridir.

Vektor avtoregressiya (Vector Autoregression, VAR) usuli vaqt ketma-ketligini tahlil qilishning statistik usuli bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turadigan bir nechta o‘zgaruvchilar orasidagi munosabatlarni o‘rganish uchun ishlatiladi. VAR usuli har bir o‘zgaruvchining o‘tgan qiymatlariga va modeldagi barcha boshqa

¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

o'zgaruvchilarning o'tgan qiymatlariga bog'liqlik darajasini aniqlaydi. Ushbu usul bir vaqt qatoridagi o'zgarishlar tizimdagi boshqa qatorlarga qanday ta'sir qilishini o'rganish imkonini beradi.

DSGE (Dynamic Stochastic General Equilibrium) – dinamik stoxastik umumiy muvozanat modeli zamonaviy makroiqtisodiy modellar tizimi bo'lib, makroiqtisodiy holatda monetar va fiskal siyosatdagi tasodifiy vaziyatlarni, ya'ni turli shoklarning tabiatini xarakterlab beradi. DSGE modeli kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini foydasi, solig'i va mahsulotlar narxlarini izohlab beradi. DSGE modellari vaqt va noaniqlikni hisobga olgan holda makroiqtisodiy munosabatlarni o'rganish uchun ishlatiladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari O'zbekistonda soliqlarning korxonalarining moliyaviy faoliyatiga ta'sirini baholash usullarini qo'llashda aniq va ishonchli natijalarni olishni qiyinlashtiradigan turli muammolar ham mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu muammolarning ayrimlari quyidagilardan iborat: soliqlarning ta'sirini o'lchash qiyinligi; ma'lumotlar bilan bog'liq muammolar; korxonalar faoliyatiga ta'sir etuvchi barcha omillarni hisobga olishning murakkabligi; soliqlarning korxonalarining moliyaviy faoliyatiga ta'sirini tahlil qilishda "endogenlik" muammosidan qochish; nazorat guruhlarining yo'qligi; turli xil soliq turlari uchun buxgalteriya hisobidagi noaniqliklar; soliqlarni prognoz qilishdagi muammolar; soliq siyosatidagi o'zgarishlar; soliqlarning ta'sirini baholashning ba'zi usullari ularning har tomondan ta'sirini hisobga olishda cheklanganligi.

Korxonalarining moliyaviy faoliyatini soliqlar orqali rag'batlantirishda xalqaro tajribalarga asoslanish, mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaratish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, soliq yukini kamaytirish, korxonalarining soliq strategiyasini optimallashtirish, korxonaning raqobatbardoshligi va barqarorligini oshirish hamda ish o'rinlari yaratishda yanada qulay soliq muhitini yaratish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'siri tahlili**" deb nomlangan bo'lib, unda korxonalar faoliyatini soliqqa tortish mexanizmi tahlili, soliq yukining korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'siri tahlili, soliq ma'murchiligining zamonaviy yo'nalishlari va ularni korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'siri tahlili amalga oshirilgan.

Korxonalar faoliyatini soliqqa tortish tizimini tahlil qilish va shu asosda tegishli xulosalar shakllantirishda korxonalarining soliq strategiyasini optimallashtirish, soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish xavfini minimallashtirish va barcha qonun talablariga rioya qilishga erishish mumkin. Kompleks tahlil korxonaga asoslangan moliyaviy qarorlar qabul qilish va moliyaviy holatini yaxshilash imkonini beradi. Bunda soliqqa tortish mexanizmini tahlil qilish amaldagi qonunchilik va soliq tamoyillari doirasida amalga oshirilishi lozim.

Korxonalar soliq tizimini tahlil qilishda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olinishi lozim: soliq yukining hajmi va tuzilishi; soliq stavkalari va imtiyozlari; soliq tizimining murakkabligi; soliq imtiyozlari va preferensiyalari; soliq xavfi darajasi; investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri; soliq strategiyalarini optimallashtirish;

boshqa mamlakatlar yoki mintaqalar bilan taqqoslash; shartlar va muddatlar; soliqlarni undirish samaradorligi.

Korxonalar faoliyatiga soliqlarning ta'sirini tahlil qilishda soliq yukini aniqlash, soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash va korxonaning umumiy moliyaviy barqarorligini belgilashning muhim ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkoniyati yuzaga keladi. Ushbu ta'sirni tahlil qilishda soliq turlarini, xususan, foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, mol-mulk solig'i va ijtimoiy soliqlarni tahlil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, 2019-yil 1-oktabrdan boshlab, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi amaldagi 20 foizdan 15 foizgacha pasaytirildi. Natijada respublika miqyosida xo'jalik yurituvchi subyektlar ixtiyorida 10 trillion so'mdan ortiq aylanma mablag' tejab qolindi.

1-jadval

**“TOP PHARM SERVICE” MChJning aylanmasi bo'yicha
qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi¹⁴, mln. so'm**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Yillar				
		2019	2020	2021	2022* 6 oylik	2023* 6 oylik
Tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma, jami	010	2314,6	2826,3	6445,8	3972,5	3865,4
Qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydigan aylanmalar (0 % stavka)	020	0	0	26,5	0	0
Soliqqa tortiladigan aylanmalar (010-020)	030	2314,6	2826,3	6419,3	3972,5	3865,4
Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi (foizda)	040	20	15	15	15	12
Qo'shilgan qiymat solig'i summasi (030*040/100)	050	462,9	423,9	962,8	595,9	463,8

2023-yildan boshlab tadbirkorlar uchun QQS stavkasi 15 foizdan 12 foizga tushirilishi natijasida ular ixtiyorida qo'shimcha 14 trln. so'm aylanma mablag'i qolmoqda. Shuningdek, 2023-yil 1-apreldan boshlab budjet mablag'lari hisobidan ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha QQS imtiyozlari bekor qilindi.

Tadqiqot doirasida "TOP PHARM SERVICE" MChJda QQS hisob-kitoblari tahlil qilindi (1-jadval).

¹⁴ "TOP PHARM SERVICE" MChJning yillik hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

1-jadval tahlili shundan dalolat beradiki, “TOP PHARM SERVICE” MChJning aylanmasi yuzasidan qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasining 20 foizdan 15 foizga pasayishi hisobiga xo‘jalik yurituvchi subyektlar ixtiyorida 39,0 mln. so‘mlik (462,9-423,9) aylanma mablag‘lari qoldirilgan.

2023-yildan qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasining 15 foizdan 12 foizga pasayishi hisobiga xo‘jalik yurituvchi subyektlar ixtiyorida 6 oylik ma‘lumotlari asosida 132,1 mln. so‘mlik aylanma mablag‘lari qolishi bilan bir qatorda tovarlar bahosi pasayganligi ahamiyatlidir.

QQS tuzilishining nazariyasi va metodologiyasi soliqni hisoblashning quyidagi to‘rt usulidan birini qo‘llash imkoniyati mavjudligini tasdiqlaydi: to‘g‘ri va bilvosita additiv usul, to‘g‘ridan to‘g‘ri chegirish va bilvosita chegirish usullari (2-rasm).


2-rasmda usullar ichidan uning optimalini tanlab olish uchun ularning afzalliklari va kamchiliklarini baholash talab etiladi. QQSni hisoblash mazkur usullarining har biri uchun umumiy asos – soliq summasini hisoblash uchun foydalaniladigan soliq bazasi hamda uni aniqlashning usuli hisoblanadi. QQSni hisoblash har bir usullarining mazkur soliq mohiyatiga muvofiq kelishi va turli omillar ta‘sirida bo‘lishi, soliq to‘lovchi tomonidan amalga oshirilgan hisoblashlarning to‘g‘ri amalga oshirilishi nuqtayi nazaridan hamda soliq organlari tomonidan QQSni hisoblash usullarining eng optimalini tanlab olish maqsadida amaldagi soliq qonunchiligi doirasida nazoratni amalga oshirish jarayonida qiyosiy baholash muhim ahamiyatga ega.

Umuman, QQSning uchta alohida o‘ziga xos xususiyatlarini ta‘kidlash mumkin. Birinchidan, soliqqa tortiladigan aylanmaga ilgari to‘langan soliq to‘lovlari summalari kiritilmaydi (QQSning ilgari amal qilgan “stavkasi tovar yalpi qiymatiga tovar harakati barcha bosqichlariga akkumulyatsiya qilingan “kaskadli” oborot solig‘i”dan tub farqi). Ikkinchidan, soliqqa tortiladigan aylanma va QQS tovar bahosi tarkibida alohida-alohida hisoblab boriladi va korxonalar hisob raqamlarida aks ettiriladi. Uchinchidan, soliqqa tortish jarayoniga butun aylanma qamrab olinadi, lekin budjetga esa QQSning ma‘lum qismi – to‘lovchi tomonidan tovarni sotib olish bahosiga qo‘shilgan qiymatga mos qismigina to‘lanadi.

“TOP PHARM SERVICE” MChJning moliyaviy natijalari tahliliy ma‘lumotlari bilan yaqindan tanishadigan bo‘lsak, 2-jadval ma‘lumotlari tahlillaridan ko‘rinadiki, korxonada 2020-2022-yillarda yilni sof foyda bilan yakunlagan. Tushumga nisbatan mahsulot tannarxining ulushi 2020-2022-yillarda o‘rtacha 24,8 %ni tashkil qilgan (2020-yilda 21,4 %, 2021-yilda 23,8 %, 2022-yilda esa bu ko‘rsatkich ko‘tarilganligini ko‘rishimiz mumkin – 29,1 %). Korxonaning foyda solig‘i to‘lagunga qadar foydasi 2020-yilda 618 885,4 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lib, buning natijasida budjetga 84 351,6 ming so‘m foyda solig‘ini to‘lagan.

Natijada hisobot yilini 534 533,8 ming so‘m sof foyda bilan yakunlagan. Korxonada 2022-yilda foyda solig‘ini 413 283,0 ming so‘m miqdorda budjetga to‘lagan bo‘lib, 2021-yilga nisbatan 109 304,5 ming so‘mga ortiq to‘lagan bo‘lsa ham 2 244 234,5 ming so‘m sof foyda bilan chiqqan.

Shuni alohida ta‘kidlash zarurki, korxonada 2021-yilga nisbatan 706 948,5 ming so‘mga ko‘p sof foyda olib, takror ishlab chiqarish uzluksizligi hamda barqarorligini ta‘minlashga erishgan.



2-rasm. QQSni hisoblash usullarining qiyosiy tavsifi¹⁵

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

**2020-2022-yillarda “TOP PHARM SERVICE” MChJning
moliyaviy natijalari tahlili (ming so‘m hisobida)¹⁶**

Ko‘rsatkichlar	Satr	2020-yil		2021-yil		2022-yil	
		Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>	<i>7</i>	<i>8</i>
Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushum	010	2 707 376,1		6 112 045,0		7 152 283,5	
Sotilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi	020		578 593,2		1 452 649,6		2 084 002,7
Sotishdan tushgan sof tushum	030	2 128 782,9		4 659 395,4		5 068 280,8	
Davr xarajatlari, jami	040		1 416 772,8		1 964 845,2		2 026 741,2
Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar	090	97 262,2		225 182,5		601 892,1	
Asosiy faoliyatdan daromadlar (030-040+090)	100	809 272,3		2 919 732,7		3 643 431,7	
Moliyaviy faoliyatdan daromadlar, jami	110	190 297,7		297 727,3		457 349,2	
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromatlari	160	42 916,3					
Moliyaviy faoliyatdan xarajatlari	170		380 684,6		1 376 195,5		1 443 263,4
Umumxo‘jalik faoliyatidan daromadlar	220	618 885,4		1 841 264,5		2 657 517,5	
Favqulodda foyda va zararlari	230						
Foyda solig‘i to‘lagunga qadar foyda	240	618 885,4		1 841 264,5		2 657 517,5	
Foyda solig‘i	250		84 351,6		303 978,5		413 283,0
Foydadan boshqa soliqlar va yig‘imlar	260						
Hisobot yilining sof foydasi	270	534 533,8		1 537 286,0		2 244 234,5	

Korxonada tannarxni daromadga nisbatan foizda baholash ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarni boshqarish samaradorligining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqarish xarajatlari daromadning qaysi qismini tashkil etishini ko‘rsatadi. Biz tahlil qilgan “TOP PHARM SERVICE” MChJ tushumga nisbatan mahsulot tannarxining ulushi 2020-2022-yillarda o‘rtacha 24,8 %ni tashkil qilgan.

Tahlil natijalari ko‘rsatadiki, foyda solig‘i bazasi va summasiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi: mahsulotni sotishdan sof tushum, sotilgan mahsulotning tannarxi, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy faoliyatning daromadlar va xarajatlari, favqulodda olingan foyda va zarar, foyda solig‘ining hisobot davridagi stavkasi.

Yuqoridagi omillarni ikki guruhga ajratgan holda ularning foyda solig‘iga ta’sirini hisoblash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Birinchi guruh omillari foyda solig‘i summasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar bo‘lsa, ikkinchi guruh omillari unga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardir. Masalan, mahsulotni sotishdan sof tushumning oldingi yilga nisbatan ko‘payishi boshqa omillarning o‘zgarishsiz qolishi sharti bilan foyda solig‘i summasining ko‘payishiga olib keladi. Sotilgan

¹⁶ “TOP PHARM SERVICE” MChJning 2020-2022-yillardagi yillik hisoboti 2-shakl ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

mahsulotning tannarxi ko'rsatkichi esa yuqoridagi shart bilan foyda solig'i summasini kamaytirishga olib keladi.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga soliqlarning ta'sirini baholash tartibini takomillashtirish yo'nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini ekonometrik modellashtirish va korxonalar faoliyatini soliqlar orqali rag'batlantirish samaradorligini baholash tartibini takomillashtirish masalalari o'rganilgan.

Korxonalar faoliyatida soliq stavkasi asosiy ko'rsatkich bo'lib, tadqiqot davomida soliq stavkasining korxonaning boshqa ko'rsatkichlariga ta'sirining kointegratsion modeli ishlab chiqilgan. Gipotezamiz bo'yicha korxonalar soliq stavkasining o'zgarishi yalpi foydaning o'zgarishiga kuchli ta'sir etishi aniqlandi. Korxonalar darajasida, ya'ni mikrodarajada modellashtirish uchun VAR modelidan, makrodarajada, ya'ni yalpi ichki mahsuloti va respublika umumiy soliq daromadlari o'rtasidagi tahlil uchun DSGE modeli qo'llanilgan.

Bu tushuncha ekonometrikada lag bilan, ya'ni bir yil oldingi qadamning o'zgarishlarini hisoblash bilan aniqlanadi. Bog'liqlik VAR modelini qo'llash zaruratini ifodalaydi. VAR vector auto regression modeli bo'lib, unda natijaviy belgining laglari ham ishtirok etadi. ARDL modeli esa autoregressive distributed lag modeli bo'lib, tenglamada omil belgilarning laglari ham ishtirok etadi.

Ikkinchi tenglama regression natijalaridan foydalanib, birinchi tenglama hosil qilinadi, bu esa ekonometrikada 2SLS modelini ifodalaydi. Shunday qilib, gipotezamizga asosan quyidagi tenglamalar sistemasi hosil bo'ladi:

$$\begin{cases} \ln y_1 = \beta_0 + \beta_1 \sum_{i=1}^n \ln \hat{y}_{1ti} + \beta_2 \sum_{i=1}^n \ln \hat{y}_{2ti} + \varepsilon \\ \ln y_2 = \alpha_0 + \alpha_1 \sum_{i=1}^n \ln \hat{y}_{2ti} + \alpha_2 \sum_{i=1}^n x_{ti} \end{cases}$$

Modelda qatnashadigan natijaviy hamda omil belgilarni belgilab olamiz va quyidagi VAR modelini STATA dasturi orqali ishlab chiqamiz.

Tahlil asosida quyidagi optimal model tenglamasi shakllantirilgan:


$$\ln YF = 0.69 \ln SS_{L1} - 2.012 \ln SS_{L2} + 1.04 \ln YF_{L1} + 0.16 \ln YF_{L2} + 0.21$$

Mazkur model parametrlari standart xatolari, z test va ehtimollik qiymatlari bo'yicha ishonchli va statistik ahamiyatga ega. Bosh gipoteza rad qilinib, alternativ gipoteza qabul qilinishiga asos bo'ladi. Korxonalar faoliyatida soliqlar mustaqil o'zgaruvchi bo'lib, korxonalar siyosati orqali soliqlar stavkasini boshqarish imkoniyati mavjud emas. Yalpi foyda bog'liq o'zgaruvchi, soliq stavkasi yalpi foydaning o'zgarishiga sabab bo'ladi.

“EAST OIL” MChJning 2008-2022-yillardagi yalpi foydasi va foyda solig'i stavkasi ma'lumotlari orqali ishlab chiqilgan optimal model bo'yicha soliq stavkasining birinchi lagi – ijobiy, ikkinchi lagi – salbiy. Demak, soliq stavkasi o'zgarishi birinchi yili korxonalariga ijobiy ta'sir etsa ham keyingi yildan boshlab kuchli salbiy ta'sir etadi. Soliq stavkasining bir foizga ortishi birinchi yili yalpi foydaning 0,69 foizga ortishiga, ikkinchi yili 2,012 foizga keskin kamayib ketishiga olib keladi.

DSGE modelini shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlaridan YaIMning o‘shishi, iste‘mol narxlarining o‘zgarishi va soliq siyosatining (budget tushumlarining) 2014-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan davr oralig‘ini tanladik. Bizning fikrimizcha, soliq stavkasining ortishi ishlab chiqarishni kamaytirish va narxlarning ortishiga olib keladi, yalpi ishlab chiqarish keskin o‘zgaradi.

Ma‘lumotlar tahlili ham ko‘rsatmoqdaki, narxlarning o‘zgarishi keyingi davrda YaIMning o‘shishini kamaytiradi. DSGE, odatda, uchta o‘zgaruvchi bo‘ladi. Bular boshqariladigan o‘zgaruvchi, keskin o‘zgarishlarga tez-tez uchraydigan shok holatda bo‘ladigan o‘zgaruvchi va natijaviy o‘zgaruvchi hisoblanadi. Bizning tadqiqotimizda shokka uchraydigan o‘zgaruvchi iste‘mol narxlar indeksi hisoblanadi. Boshqariladigan o‘zgaruvchi soliq stavkasi va natijaviy belgi YaIM o‘shisidir.



3-rasm. 2014-2022-yillarda YaIM va iste‘mol narxlarining o‘zgarishi¹⁷

Bunda STATA 16 dasturidan foydalanamiz. Lekin DSGE dastlab tenglama ishlab chiqilishi va shu tenglama bo‘yicha dasturdan foydalanish kerak bo‘ladi.

$$\frac{1}{Y_t} = \beta E_t \left[\frac{1}{Y_{t+1}} \frac{R_t}{\Pi_{t+1}} \right]$$

Mazkur tenglama bo‘yicha DSGE modelini quramiz.

3-jadval

DSGE model natijalari¹⁸

	Coef	St. err	Probability
/ structural			0.0
beta	-0.14	0.07	0.0
kappa	-0.10	0.004	0.0
rhov	0.69	0.12	0.0
rhog	0.95	0.15	0.0
Sd(e.u.)	2.3	0.29	
sd(e.g.)	0.6	0.9	

DSGE modeli barcha koeffitsiyentlar bo‘yicha statistik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, ehtimollik qiymati 0.05 dan kichikligi alternativ gipotezani qabul qilib, bosh gipotezani inkor qilishga asos bo‘ladi.

¹⁷ Rasm muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁸ Jadval amalga oshirilgan ekonometrik tahlil ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

